

Ona yurting - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. AS

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

2005-yil 24-30-oktabr N:43 (66532)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA


ZILOLANING



"DADASI"

2

-BETDA



NAVBAT JAHON CHEMPIONLIGIGA

4

-BETDA

"KO'CHALAR



TINCH..."

7

-BETDA

BOLALIK

O'tar-ketar bolalik,
Xuddi oqar daryodek.
Sho'xli-gu shodliklarim,
Tush misol bir ro'yodek.
Bekinmashoq o'ynardik,
Marra chizig'i yaqin.
Bir-birimizni topsak,
Shodlanib olardik tin.
Jarangdor ovozimiz,
Shalolaga o'xshaydi,
Bolalik bilan birga,
Qalbim mudom yashaydi.

ONAJONIM

Onajonim-mehribonimsiz,
Qalbi daryo jonajonim, siz.
Gulloladek ochilib yuring,
Baxtimizga siz omon bo'ling.
Ezgulikni e'zozlab kelgan,
Muruvvatni yetaklab yelgan,
Ko'ngli tog'dek so'rovchimiz siz,
Allohdan baxt tilovchimiz siz.

Shahnoza ESHMAMATOVA,
Hamza tumanidagi 149-maktabning
8-"G" sinf o'quvchisi.

Ustozga so'z

Maktabimizdagi 1540 nafar o'quvchi 67 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilar qo'lida tahsil olishadi. Ustozlarimizdan 4 nafari "Xalq ta'limi a'lochisi" unvoniga ega. Pedagogik jamoamiz darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishgan. Yaqinda ustoz Maktab Qodirovaning "fizika darslarida test usulidan foydalanish" mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasi Respublika miqyosida g'olib deb topildi. Maktabimizdagi 11 ta kompyuter hamda internet tarmog'i o'quvchilar ixtiyorida. Futbol, voleybol,


kelyapman. Maktabimizni to'liq ta'mirlashda, o'quvchilarimizni gazeta va jurnallarga obuna qilish ishlarida shahar hokimi Ahmadjon Umarov va Zarafshon shahar qurilish bosh boshqarmasi boshlig'i Nikolay Semyonovich Dyakovlar jonkuyarligidan behad minnatdorman. Chunki ular yaratgan shart-sharoitlar tufayli o'quvchilarimiz "Umid nihollari" sport musobaqalari, "Ajdodlarimiz merosi" va boshqa ko'rik-tanlov, bellashuvlarda shahar, viloyat va respublika bosqichlari g'oliblari bo'lishdi.

BIR MAKTABDA II KOMPYUTER

basketbol, stol tennisi, shaxmat kabi sport to'garaklari doimo bolajonlar bilan gavjum.

Sport zalimiz, maydonchamiz, yuvinish xonalarimiz davr talabiga to'liq javob beradi. Bundan tashqari, matematika fani yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflar tashkil etilgan.

Mana 4 yildirki, shu bilim maskaniga rahbarlik qilib



O'quvchilarimizning 96 foizi o'quv darsliklari bilan to'liq ta'minlandilar.

Bolajonlarimiz "Siz qonunni bilasizmi?" tanlovida ishtirok etib, muvaffaqiyatga erishishdi. Maktabimiz shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan tashkil etilgan reyting ko'rsatgichi bo'yicha 12 ta maktab orasida 3-sovrinli o'rinni egalladi. Ayrim maktablarda maktabni ta'mirlashga, maktab fondiga, obodonlashtirishga... pul yig'iladi, deb eshitaman. Ammo bu hol bizning o'quvchilarga umuman begona. Sababi, biz mehribon va bolaparvar insonlar nazoratidamiz. Bu yil 1 mln. 840 ming so'mlik obunaga pul xarjlab, jumladan, "Tong yulduzi" gazetasiga 420 o'quvchimizni obuna qilgandik. 2006 yil uchun xomiyliklarimiz ko'magida 700 dona "Tong yulduzi" olishimizga so'z beraman. Bolalar o'z gazetasini o'qimasa, davlat siyosati bilan tanisha olmaydi. Bu bo'shliqni esa turli oqimlar orqali kelayotgan ma'lumotlar to'ldirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun aziz ustozlar, sergak va jiddiylik bilan bolalar nashrlariga obuna bo'lishga kirishaylik. Har bir o'quvchi o'z gazetasiga hamroh bo'lishi kerak.

Gulsara KARAKULOVA,
Zarafshon shahridagi Amir Temur nomli
8-o'rtta maktab direktori.

Aziz bolajonlar, xabaringiz bor, yaqinda gazetamizda sizning huquq va burchlaringiz haqidagi bilimlaringizni sinab ko'rish maqsadida "Bola huquqlari - bolalar nigohida" nomli tanlov e'lon qilgandik. Tanlovimizga shu oz fursat ichida siz ziyrak va bilimdon o'quvchilardan talaygina maktublar oldik.

Quyida e'tiboringizga eng birinchi bo'lib tahririyatimizga yetib kelgan maktublardan birini havola qilyapmiz:

1. Bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishiga ota-ona yoki tegishli holatlarda vasiylar javobgar.

2. Oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan bola davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

3. Bolaning ilm olish huquqini teng imkoniyatlar asosida amalga oshirish uchun:

a) **TANLOV SAVOLLARIGA**

Bepul va majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etiladi;

b) Barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyati asosida oliy ta'limdan bahramand bo'lish ta'minlanadi, barcha bolalar uchun ta'lim va kasb-hunar tayyorgarligi sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish-imkoniyatlarini

yaratadi va hokazo.

4. Bolani iqtisodiy ekspluatatsiyadan

hamda

uning

sog'ligi

uchun xavf-xatar

yetkazishi mumkin

JAVOBLAR:

bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan, yoxud sog'ligi, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilish maqsadida uni ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh belgilab qo'yiladi.

«Bola huquqlari - bolalar nigohida» tanloviga

(Hikoya)

Ko'chamizda hamma havas qiladigan bir oila yashardi. Hozir esa unga hech kim havas qilmay qo'ygan. Sababi...

Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay:

Shokir aka bilan Sayyora opalar xonadonida bir o'g'il, ikki qiz kamol topardi. Har ikkalalari ham o'qimishli, ziyoli bo'lganlari uchun ham farzandlari tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qarashardi. Ayniqsa, oila to'ng'ichi Zilolaning ta'lim-tarbiyasiga. U uyidan ancha olisda bo'lgan allaqanday pulli maktabda tahsil olardi. Maktabdan kelishi bilanoq tushlik qilib olardi-da, bir kuni musiqa maktabiga, ikkinchi kuni til o'rganish mashg'ulotlariga oshiqardi. Yana sportning tennis, suzish kabi turlari bilan shug'ullanishga ham fursat topardi. Xullas, mahalladagi tengdoshlari kabi ko'cha changitib o'ynashga vaqti ham, xohishi ham yo'q edi uning. Xullas, Zilolaning maqtovi onalarimiz tilidan tushmasdi. Uni hammamizga namuna qilib ko'rsatishardi...

Kuz kunlarining birida bu oila boshiga og'ir musibat tushdi. Shokir aka avtohalokatga uchrab, kasalxonaga ham yetolmay, yo'lda olamdan o'tibdi. Bu yo'qotish oilaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Oradan ikki yil o'tar-o'tmas Sayyora opa kattagina hovlisini sotib, shaharning bir chekkasidagi ko'p qavatli uylardan biriga ko'chib ketibdi, degan xabar tarqaldi.

Oradan yana bir yil o'tdi. Men ham maktabni tamomlab, kollejda o'qishimni davom ettira boshladim. Bir kuni avtobus bekatida skripka chalib turgan bir qizga ko'zim tushib qoldi. Uning

chalayotgan kuyi shu darajada mungli, dardli ediki, beixtiyor u tomonga qarashga majbur qilardi kishini. Kuy chalayotgan qiz ko'zimga juda tanish ko'rindi. Yaqinroq borib qarasam, mahallamizdan uch yil avval ko'chib ketgan Sayyora opaning hamma havas qiladigan qizi Zilola ekan. Salomlashish niyatida yoniga borsam, xuddi tanimagandek ko'zini olib qochdi. Noiloj indamay o'tib ketaverdim. Shu kuni darslarimiz cho'zilib ketib, odatdagidan biroz kechroq qaytdim. Qarasam, Zilola hali ham o'sha yerda turib, kuy chalyapti. Oldidagi qog'oz qutichada 100 so'mlik, 50 so'mlik pullar va tangalar tartibsiz sochilib yotardi. Yoniga borib salomlashdim, o'zimning kimligimni eslatdim.

-Sizni ertalaboq tanigandim, lekin uyalganimdan...- shunday deya Zilola boshini quyi egib oldi.

-Maktabni tugatdingmi?- so'radim undan yana.

-Yo'q, 9-sinfga o'tgandim. Dadam o'qishga yubormay qo'ydi.

"Dadam" deganidan ajablanganimni yuzlarimdan sezdimi, o'zi bir boshdan so'zlay ketdi.

...Dadamning vafotidan keyin oyimning ancha toblari qochib qoldi. Ishga yaroqsiz bo'lib qolganlari uchun nogironlik nafaqasiga chiqishga majbur bo'ldilar.

O'zingdan qolar gap yo'q, bizni boqishlari, kiyintirishlari kerakku. Noilojlikdan bir odamga turmushga chiqdilar. Avvaliga yaxshi yashashdi. Biz onamning iltimoslariga ko'ra u kishini "dada" deb atay boshladik. Lekin vaqt o'tishi bilan dadamiz o'zgarib qoldilar. Ko'p ichadigan, oyim bilan ko'pincha tortishib qoladigan odat

chiqardilar. Bora-bora bunday tortishuvlar onamning beayov kaltaklanishi bilan yakun topadigan bo'ldi.

Bir kuni maktabga ketayotib bexosdan ularning janjali qulog'imga chalinib qoldi. "Qizing kap-katta bo'lib qoldi. Qachongacha boqimanda bo'lib o'tiradi? Ishlab, pul topsin". Bu dadamning gaplari edi. Onam: "U hali yosh bola-ku, maktabni ham tugatgani yo'q. Qolaversa, qo'lida biror hunari ham bo'lmasa" degan e'tirozlari uchun kaltak bilan "siylandilar". "Hunari bo'lmasa, skripkasini olib, tilanchilik qilsin. Kechgacha pul topib qo'ymasalar, o'zingdan ko'r" deya chiqib ketdilar dadam. Bellarini ko'tarolmay, yerda ingrab

sezdirmay, dadamga berdim. "Dadajon, men endi har kuni sizga pul topib kelaman. Siz faqat onamga aytmang. Men ularni, maktabga ketyapman, deya aldab chiqib ketaman. Birgina iltimosim - onamni urmasangiz bo'ldi", dedim. Shu-shu mana ko'rib turganingizdek...

Zilolaning hikoyasidan juda ta'sirlandim. Uning avvalgi quvnoqligi, jo'shqinligi, bilimga chanqoqligidan asar ham qolmagandi. Beixtiyor uni shu kuyga solgan, beg'ubor bolalik damlarini o'g'irlagan "dadasi"dan nafratlanib ketdim. Menimcha, uning bunday yo'l tutishga haqqi yo'q. Axir yurtimizdagi har bir bola ilm olish huquqiga ega-ku. Bu haqida "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning 28 - moddasida ham aniq-ravshan qilib yozib qo'yilgan. Menimcha, Zilolaning dadasi uning huquqlarini paymol qilyapti.

Siz nima deysiz, aziz



yotgan onamga juda rahmim kelib ketdi. Xonamga qaytib kirib, skripkamni olib chiqib ketdim. Shu kuni maktabga bormay, meni hech kim tanimaydigan joylarda kuy chaldim. Topgan choychaqamni onamga

tengdoshlarim, Zilolaga qanday yordam berish mumkin?

Zulfiya ISMOILOVA,
Chirchiq shahar tibbiyot kollejining 1-bosqich talabasi.

QALBIM IFTIXORGA TO'LADI

Sinfimizdagi barcha o'quvchilar "Tong yulduzi"ga obuna bo'lishgan. Chunki undagi maqola-yu topishmoqlarni, tengdoshlarim yozayotgan she'r-u ertaklarni o'qib mazza qilamiz. Men ham rasm chizishga, she'r yozishga juda qiziqaman. Bu yil maktabimiz boshqa maktablar qatori qaytadan ta'mirlandi. Zamonaviy tipda ta'mirlangan, o'quv qurollari bilan ta'minlangan va jihozlangan maktabimizni bir ko'rsangiz edi. Har kuni maktabga kelarkanman, shunday maktabda, jonkuyar ustozlar qo'lida o'qiyotganimdan faxrlanib, qalbim g'urur va iftixorga to'lib ketadi.

Mamlakat ABDUG'ANIYEVA,
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 6-"B" sinf o'quvchisi.

TILDAN DILGA KO'CHGAN NAVOLAR

"Qo'shiq - inson qalbiga murojaat, yaratganga munajat, sahna sajdagohidir". Ushbu so'zlarni kim aytganligi xotiramda yo'q. Ammo

har gal yaxshi qo'shiq tinglaganimda bu so'zlar yodimga tushaveradi. Kuni kecha Respublika O'quvchilar saroyida Xalq ta'limi vazirligi hamda "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi hamkorligida o'tgan "Yosh maqomchilar" 1-Respublika ko'rik-tanlovi ishtirokchilarining chiqishlarini kuzatar ekanman, bu so'zlar yana bir bor ko'nglimdan o'tdi.

7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan ushbu tanlov asrlar davomida unutilmay kelayotgan o'zbek-tojik xalqining madaniy-musiqiy merosi bo'lgan "Shashmaqom", Xorazm maqomlari, Toshkent-Farg'ona maqom yo'llariga mansub bo'lgan maqomlarni bolalar orasida targ'ib qilish, malakali maqomdonlarni tayyorlash maqsadida tashkil etildi.

Respublikamizning barcha viloyatlaridan hamda

Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan iqtidorli maqomsevarlar ishtirok etgan tanlovning yakunlovchi qismi O'zbekiston Milliy teatri

M.Jo'rayev hamda navoiylik Zehniddin Tolibovlar ijrosida, xatti-harakatlarida ham katta hofiz bo'lib yetishish ishtiyoqi sezilib turardi. Toshkentlik yosh maqomchilar ham bo'sh

kelishmadi. "Fido" qo'shig'i va raqsini maromiga yetkazib ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lishdi. Respublika O'quvchilar saroyi qoshidagi maqomchilar dastasining chiqishlari ham tadbirga alohida shukuh bag'ishladi. Tanlovni qashqadaryolik yosh maqomchilar

yo'llanma bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi.

Tanlov natijalariga ko'ra, Oliy o'rin qashqadaryolik maqomchilar dastasiga nasib etdi.

1-o'ringa Xiva tumanidagi Nafis san'at va milliy hunarmandchilikka ixtisoslashgan maxsus 42-maktab o'quvchilari aka-uka Voisovlar hamda Respublika O'quvchilar saroyi maqom dastasi a'zolari loyiq topildilar.

2-o'rinni andijonlik

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Elmurod Islomov tadbir ishtirokchilarini

Tanlovning eng yosh va jozibali ovoz sohibi deb tan olingan ishtirokchilaridan biri Farruhbek IKROMOV mana shu bola bo'ladi.



qizg'in tabriklab, "Aziz bolajonlar, sizlarni shunchalik tayyorlagan ustozlaringizga ming rahmat", deya o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Ikki kun davomida bizga hamroh bo'lgan qadim navolar o'z sehri va jozibasi bilan qalblarni allaqanday nurli, ajib tuyg'ularga beladi. Shunday xayollar og'ushida qaytarkanman, sevimli san'atkorimiz Sheramat aka Yormatovdan tanlov taassurotlari bilan o'rtoqlashishlarini iltimos qildim:

-Tanlov juda zo'r o'tdi. Bolalarning ijro mahoratlari

tahsinga sazovor. Men istardimki, shoirlar maqomlarbop zamonaviy she'rilar yozsalar.

Bolalarbop milliy ohangdagi musiqalar yaratilsa. Yoqimli ovoz insonga xos go'zallik alomatidir. Uni ko'z qanday ehtiyot

qilinsa, shunday ehtiyot qilish lozim. Ayniqsa, bolalarning hozirgi yoshida qattiq baqirish, ovozni zo'riqtirish, terlab sovuq narsa iste'mol qilish kabi holatlardan uzoqroq yurishlari shart. Bu bolalarning kelajakda ham mana shunday jo'shqin ovoz sohibi bo'lishlari, maqomchilik san'atiga uzoq yillar xizmat qilishlari uchun zarur...

Biz ham san'at yo'liga tetapoya qilib kirib kelayotgan bu yosh maqomchilar bilan jahon simfoziumlarida ko'rishishni niyat qilib qolamiz.

Mavjuda OCHILOVA,
Nargiza AKBAR qizi.

Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir

binosida bo'lib o'tdi.

Farg'onalik yosh

maqomchining "katta

ashula"sini tinglagan

tomoshabinlar beixtiyor "do'st"

deb yubordilar.

Qoraqalpog'istonlik

A.Nurimbetovning

aytgan

dostonlarini

eshitib, qoraqalpoq

diyoriga sayr etgandek bo'ldik,

go'yo.

Tanlovning yosh

ishtirokchilari samarqandlik

Farruhjon Ikromov hamda

surxondaryolik Feruzjon

Norovlarning qo'ng'iroqdek

ovozlariga, ijro

mahoratlarga,

ayniqsa,

sahnada

o'zlarini

tutishlariga

tahsin

aytmagan

tinglovchi

qolmadi hisobi.

Andijonlik

Abrorbek

Isoqov, buxorolik

dastasi a'zolari

mukammal

maqom ijrosi

bilan yakunlashdi.

Darvoqe, Xorazm

maqomlarini

me'yoriga

yetkazib

kuylagan

xorazmlik aka-uka

Voisovlar haqida

gapirishni unutay

debman-u. Ularga

tomoshabinlar,

Xorazmning yosh

bulbullari, deya baho

berishdi.

Tanlov ishtirokchilarini

tabriklash uchun so'zga chiqqan

O'zbekiston san'at arbobi Temur

Mahmudov "Bu yosh

maqomchilarimizning

kelajagiga biz katta umid

bildiramiz", dedi ishonch bilan.

-Men, maqomni sevuvchi bir

ayol sifatida siz aziz

ishtirokchilarga ta'zim qilgim

keladi", - dedi "Oltin meros"

xayriya jamg'armasi xodimi

N.Usmonova to'lqinlanib va o'n

nafar o'quvchini chet el safariga



Aka-uka Temurbek va Voisovlar tavallud topgan oilada san'atkorlar yo'q. Komiljon Otaniyozov qo'shiqlarini tinglab, kamol topayotgan bu aka-ukalar mana uch yildirki, ustozlari Rustam aka Atajonovdan maqom qo'shiqchiligi sirlarini o'rganib kelishyapti. Tanlovda ularning ijrochilik mahorati yuqori baholanib, 1-o'ringa loyiq topilganida aka-ukalarning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi.

TUG'ILGAN KUN

Bugun bizning uyimizda, Tug'ilgan kun bo'ladi. Ukajonim Oybekjon, To'qqiz yoshga to'ladi. Ukam, senga tilayman, sog'lik, omonlik, omad. Ota-ona baxtiga, Doim bo'lg'in salomat. Otangga bo'l tirgovuch, Ezgu ishlarga bosh-qosh. Onamning o'vunchog'i, Menga esa bo'l birdosh. Axir sening qo'lingda, Mardlar qoni boqadi. Boshing uzra tinch osmon, Quyosh kulib boqadi. Sog'lom kamol topgin deb, Onam bo'lar parvonang. Sen haqingda tinimsiz, Qayg'urar Vatan - onang. Shaxodat TOLIPOVA, Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 155 - o'rtta maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.

NAVBAT JAHON CHEMPIONLIGIGA

Kuni kecha Janubiy Koreyaning Chan-Chun shahridagi Xvarang-gvan sport zalida sportning taekvondo (VTF) yo'nalishi bo'yicha an'anaviy turnir bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli musobaqada bizning umidli yosh sportchilarimiz ham ishtirok etishganidan bir suyungan, yurtimizga 2 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medal bilan qaytganlarida o'n chandon quvondik.

- Koreyada dunyoning 42 mamlakatidan kelgan 2,5 mingdan ziyod kuchli sportchilar bilan uchrashish nasib etdi, - deydi, - turnirdan chempion bo'lib qaytgan Sherzodjon ismli sportchimiz. - Shunda qalbimda sportga mehr uyg'otgan, 7 yoshimdan sport bilan shug'ullanishga undagan dadamdan minnatdor bo'lib ketdim. Oila a'zolarim, murabbiylarim musobaqaga kuzatishayotganda, albatta medal bilan qaytishni niyat qilgandim. Niyatimga yetdim. Poytaxtimiz aeroportida bizni kutib olishga chiqqan do'stlarimiz, yaqinlarimizga medallar shodasini tuhfa etdik. Raqibim bilan bo'lgan bahsimiz biroz qiyinroq kechdi. Chunki uning usullari, tezkor harakati meni birmuncha

shoshirib qo'ygandi. Avvaliga endi yengilsam kerak, deb xavotirga tusha boshladim. Lekin musobaqaga jo'nash oldidan o'z-o'zimga bergan va'dam yodimga tushib, bor irodamni, kuch-quvvatimni ishga soldim. Intilishlarim o'z samarasini berdi.

Uchrashuvning so'nggi daqiqalarida meni oltin medalga loyiq deb topdilar. Umumjamoa hisobida esa 3- o'rinni egalladik. Endigi navbat 2006 - yili Vetnamda o'tadigan jahon chempionatiga. Yaqin kunlarda esa O'zbekiston kubogi musobaqalari bo'lib o'tadi. Niyatim - yana oltin medalli bo'lish...

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 89-maktabning 10-sinfida tahsil olayotgan

Sherzodjon Qudratovning gaplariga e'tibor bering-a, aziz tengdoshlarim. U o'z kuchiga ishonib, orzulariga yetishishga harakat qilib, ustozlari ishonchini oqlash, yurtimiz shuhratini yuksaklarga ko'tarish, sha'nini himoya qilish uchun astoydil intilib yasharkan. Qaniydi, oramizda bundaylar ko'p bo'lsa...

*Xurshida BOYMIRZAYEVA,
O'zMU jurnalistika fakulteti
I- bosqich talabasi.*

Chempionni qutlaymiz



MEN «NUR XAS»NING A'ZOSIMAN

Mahallamiz bolalari bilan bo'sh qoldik deguncha, karate haqida suhbatlashardik. Biz ham karate mashg'ulotlariga qatnasak, deya orzu qilardik. Bir kuni mening orzuim ushaldi. Kechki ovqat mahali dadam: Bo'sh vaqtingni sport bilan shug'ullanib, mazmunli o'tkazsang, degandim. Bu ham salomatligingga foyda, deb qoldilar.

-Jon derdim, -deb yuboribman quvonganimdan. Ertasi kuniyoq dadam ikkimiz Navoiy shahridagi 8- maktabning sport zalida faoliyat ko'rsatayotgan «Nur Xas» klubiga bordik. U yerdagi men tengi bolalarning abjirligi, chaqqon, epcilligini ko'rib, juda havas qildim va men ham mashg'ulotlarga muntazam qatnay boshladim. Avvaliga ancha qiynalдим. Murabbiyim Nabijon Jumanazarovning talabchanligi, qattiqqo'lligi tufayli tinimsiz mashq qilib, men ham «Nur Xas»ning haqiqiy a'zosiga aylandim. Shunda sportchining shakllanishida murabbiyning hissasi katta ekanligini angladim. Keyin esa musobaqalar boshlanib ketdi. Navoiy kon - metallurgiya kombinatining 1- va 2-kubok musobaqalarida birinchi o'rinni egalladim. Vengriyada o'tkazilgan Evropa chempionatida ham qatnashishga muvaffaq bo'ldim. Men-ku, niyatimga yetdim, karatening Kiokushin kaykan turi bilan shug'ullanib, ozmi-ko'pmi yutuqlarni qo'lga kiritdim. Ammo, mahalladagi o'rtoqlarim-chi?..

Yaqinda gazetada Qashqadaryo viloyati, Koson tumanida barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan sport maydonchasi qad rostlagani haqida o'qib qoldim. Ana shunday sport inshootlarining ko'plab qad rostdashi tarafdoriman. Niyatim - mahalladagi o'rtoqlarim bilan birgalikda sport bilan shug'ullanmoq.

*Akmal AHMEDOV,
Kiokushin kaykan karate bo'yicha Yevropa chempioni
qatnashchisi.*

Salomatlik bekati

QANDLI DIABET QANDAY KASALLIK?

Bu savolni shifoxonamizda davolanayotgan bemor bolalar mendan juda ko'p so'rashadi. Qandli diabet - moddalar almashinuvi kasalligi bo'lib, insulin (garmon) yetishmovchiligi, ya'ni, qon tarkibidagi glyukozaning ortishi demakdir. Bu kasallikning ikki turi mavjud: Birinchi turi ko'proq insulinga qaram hisoblanib, bu bolalar o'rtasida uchraydi.

Ikkinchi turi esa insulinga qaram bo'lmagan turi bo'lib, katta yoshlilar orasida ko'p tarqalgan. Bu kasallik ko'pincha gripp va gepatit kasalligidan so'ng o'z asoratini qoldiradi. Yana oiladagi doimiy ko'ngilsizliklar natijasida asab tizimining ishdan chiqishi va qattiq qo'rqish ham bu kasallikni keltirib chiqaradi. Uning belgilarini darhol aniqlash qiyin kechadi. Bu kasallik bilan og'rikan bolalarda bo'yining o'smay qolishi, haddan tashqari semirib yoki ozib ketishi hollari, panja suyaklarining o'zgarishi kabi alomatlar kuzatiladi.

Buyuk bobokalonimiz Ibn Sinoning "Bemor borki, so'z bilan davolasa bo'ladi", degan

purma'no o'gitlari hayotdagi shiorimga aylangan, desam xato qilmayman. Har kuni shifoxonaga kelamanu oq xalatimni egninga ilib, bolalar xonasi tomon oshiqaman. Ularning har biri bilan alohida gaplashishga odatlanganman. Bu kasallik bilan og'rikan bolalar yiliga ikki marta 10-15 kundan shifoxonamizda yotib, davolanib ketishadi. Ularning ko'pchiligi, «agar tuzalib ketsam sizdek do'xtir bo'laman» - deya, orzulashadi.

Shukurkim, bu yil shifoxonamizda qandli diabet kasali bilan og'rikan bolalar ro'yxati keskin kamaydi. Bu ro'yxatning umuman yo'q bo'lib ketishini juda juda istardim.

Istagingning ijobati esa siz bolajonlarga ham bog'liq, albatta. O'zingizni ehtiyot qiling. Gripp, shamollash kabi kasalliklarni oyoqda o'tkazmay, yaxshilab davolaning, toki asorati qolmasin. Gepatit, ya'ni, sodda qilib aytganda sariq kasalligiga chalinmaslik uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qiling. Ovqatlanishdan avval qo'llaringizni sovun bilan yuvishni unutmang. Hozir o'lkamizda pishiqchilik pallasi. Ho'l mevalarni ham qaynagan suvda yuvib yesangiz, kasallik sizdan nari yuradi.

*Dildora ZUFAROVA,
Respublika Endikrinologiya ilmiy- tekshirish instituti bolalar bo'limi
shifokori.*



SEMINAR

Biz "Kamolot" va "Hamma o'qishi shart emas" nomli gazetasining ilk sonini chiqarishga ham ulguridik. Tunni bedor o'tkazib, uning sahifalarini antiqa tarzda bezatdik. Uch k u n davomida seminarlarda qatnashib, bilimimizni boyitdik.

- B u y e r g a kelmasimdan a v v a l to'g'risi, vazifam nimadan iborat ekanligini ham aniq bilmasdim, -deydi Sobir Rahimov tumani "Mehrshavqat" klubi sardori Ayubxon Musayev. -Seminar davomida o'z vazifamni, maqsad va burchlarimni o'rganib oldim. Shuningdek, murabbiylarimiz Rayhona opa va Jahongir akalardan sardor o'zi kim, uning o'rni qayerda, o'zini qanday tutishi lozim kabi savollarga ham javob oldim. Eng muhimi, juda ko'plab d o ' s t l a r orttirdim...

-Seminar davomida shu narsaga amin bo'ldimki, -deya suhbatimizga qo'shildi Toshkent shahar "Kamalak" markazi mutaxassisi Murod aka Zufarov, -sardorlarni birlashtirganimiz bizning katta yutug'imiz bo'ldi.

ERMAK

"Kamolot" tashkiloti, oddiy tashkilot emas. "Kamolot" sardorlari, hech bir ishda bo'sh kelmas", deya qo'shiq kuylaganimizda o'tgan ketganlar bizga kulib, "bo'sh kelmanglar!" degandek qo'l siltab ketishardi.

Uzoqdan avtobusning qorasi ko'rinishi bilanoq qulayroq o'rindiqqa joylashib olish ilinjida hammamiz u tomon oshiqdik. Hazil-mutoyiba bilan manzilga qanday yetib kelganimizni ham bilmay qolibmiz. Xonalarga joylashib ulgurmasimizdanoq majlislar boshlanib ketdi. Sardorlar kengashi bilan birgalikda barcha vazifalarni bajardik. Tuman matbuot bo'limi sardorlari bilan

6 seksiya bo'yicha ish olib borgan seminar davomida o'qitib-o'rgatganlarimizning hech bo'lmaganda 50 foizini sardorning ongiga singdirolgan bo'lsak, marra bizniki! Maqsadimiz - sardorlarni kelajakda yetuk, malakali mutaxassislar qilib kamol toptirishdir.

Bahs va munozaralarga, qiziqarli o'yinlarga boy bo'lgani uchunmi, uch kunlik seminarimizning qanday o'tib ketganini ham sezmay qolibmiz.

Nihoyat, orziqib kutilgan damlar - Toshkent shahar sardorlar Kengashi a'zolarini saylash marosimi ham yetib keldi. Uchtepa tumani "Yetakchi" klubi sardori Iroda Po'latova shahar "Yetakchi" klubi sardori etib tayinlandi.

-Bu galgi sayyor o'quv seminarimizni o'tkazish ancha oson kechdi, -dedi matbuot sardorlarining murabbiysi Muhiddin Alimboyev. -Chunki avvallari tashkilot nizomi, dasturi, umuman tashkilot haqida qaytadan tushuncha berishimizga to'g'ri kelardi. Bu yil esa sardorlarimiz seminarga tayyor holda kelishdi. Ularning tajribasi ancha ortgani ham ishimizni yengillashtirdi. Yagona istagim - biz saylagan yangi shahar sardorlar Kengashi a'zolari bizni uyaltirib qo'yishmasin...

Barchamiz o'z o'y-xayollarimiz bilan band holda jonajon poytaxtimizga qaytardik. Axir seminar shunchaki

EMAS

o'yin-kulgu, vaqt xushlik emasdi-da. U har birimizning zimmamizga yanada ko'proq mas'uliyat yuklab qo'ygandi.

Nargiza SAYDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tuman Matbuot bo'limi sardori.

«Kamolot»da nima gap?

Barcha ta'lim maskanlarida bo'lgani kabi biz tahsil olayotgan ToshDAI qoshidagi maxsus «Avialitsey»da ham «Kamolot» saylovlari bo'lib o'tdi. Litseyimizda ja'mi 5 ta sinf bor. Avvaliga har bir sinf sardorlikka o'z nomzodini qo'ydi. Ana endi ular orasidan eng munosibini tanlashni aytib. Bu jarayon ancha tortishuvlarga, bahs va munozaralarga boy kechdi. Chunki har bir nomzod sardor bo'lishni istardi. Bir bola hatto: «Mening shahodatnomamni ko'ringlar, «5», hammasi», dedi.

Xullas, talashib-tortishib litseyimiz «Kamolot» sardori etib 11- «V» sinf o'quvchisi Naufar Mirrahimovni, uning o'rinbosari etib 10 - «B» sinf o'quvchisi Behzod Hakimovni sayladik. Chunki Naufar o'tgan yili ham sardor bo'lgani uchun bu borada ancha tajribaga ega ekan. Yangi saylangan o'rinbosarimiz esa biroz sho'xroq, o'yinqaroqroq ko'rinyapti-da. Qani ko'raylik-chi, ishonchimizni oqlay olarmikin?

Hozircha ular tomonidan tashkil etilgan ilk loyiha «Zakovat» intellektual o'yini bo'ldi. To'g'ri, bu o'yin avval ham o'tkazilgan ekan. Lekin biz - yangi o'quvchilar uchun bu ajoyib yangilik-da!

Men sardorlarimizning har ikkisiga zimmalaridagi mas'uliyatli vazifani qoyillatib bajarishlarida omadlar tilab qolaman.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
ToshDAI qoshidagi maxsus «Avialitsey» o'quvchisi.

«Kamalak»da-chi?

Rixsixon Mirzakarimova maktabidagi "Kamalak" bolalar tashkilotining eng kenja a'zosi hisoblanadi. Ustozlari uning

8 YOSHLI "KAMALAK" A'ZOSI

iqtidorini y u q o r i baholashadi. Rixsixon 5 y o s h i d a k i t o b d a g i h a r f l a r n i bo'g'inlamasdan, bermalol qo'shib o'qiy olardi. Bunga sabab, oiladagi kattalarning har kuni uyga dasta-dasta kitob-u gazetalar qo'ltiqlab kelishlari edi. Shu bois ham maktabga borganida ustozlarining bergan topshiriqlarini hech qiynalmasdan bajarardi. Rixsixon suzish



bo'yicha qator musobaqalar ishtirokchisi hamdir. Yaxshigina rasmlar chizadi. Shuningdek, rus va ingliz tillarini qunt bilan o'rganmoqda. Sinfining a'lochi o'quvchilaridan. Qushlarni, jonivorlarni, gullarni parvarish qilishni yaxshi ko'radi. Uyda esa oyijonining eng yaqin ko'makchisi. Hammayoqni supirib-sidirib, idishlarni chinnidek tozalab qo'yish uning kundalik odati. Bundan tashqari, shirin-shakar pishiriqlar ham tayyorlaydi.

-Shuncha ishlarni bajarishga qanday ulgurasiz?

-Kundalik bajaradigan ishlarimni bir kun avval rejalashtirib qo'yaman. Shu bois barchasiga ulgursam kerak.

Dugonalarimga ham agar biror-bir yumushlariga ulgurolmay qolsalar, albatta bir kun avval reja tuzishlarini maslahat berardim...

Poytaxtimizdagi 60- maktabda tahsil olayotgan tengdoshingiz Rixsixon chindan-da iste'dodli qiz. Siz ham undan o'rnak oling, aziz uka va singillarim.

Nuriddin HAYDAROV, oqqa ko'chirdi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Ammam jon-jahdi bilan yopishganlarida boshidagi shapkasi uchib ketgan kishi "plaxoy baba-plaxoy baba" deb yoqalarini tuzatar, shapkasini yerdan olib, yaltiroq joyini zo'r berib artar edi. Yana bittasi bo'lsa ammamlarning dod-voyi bilan ishi yo'q, hovlining u yog'idan bu yog'iga borib kelib, bir nimalarning mo'ljalini olar, o'tirar-turar, yer suzgandek engashardi. Xuddi esi og'ib qolgan odamga o'xshardi. Oxiri orqasidan it quvgandek yo'lakdan yugurib ko'chaga tushib ketdi. Keyin ko'chada turganicha biz bilan bekinmachoq o'ynayotgandek o'tirib, oyog'ining uchida turib bo'ylay boshladi. Siroj tog'am ammamga bir nimalar deb uqtirar, gaplari qulog'imga kirmas, xayolim anovimasharabozga o'hsahab qiliqlar qilayotgan odamda edi.

Men ham unga javob qilgandek bir pastlab, bir balandlab, o'zimni goh o'ngga, goh chapga tashlab, tirjayar edim. Bir maxal u pastdan meni qo'rqitgandek yugurgilab chiqib keldi-da, birdan qo'limdagi kosovga yopishdi. Men bo'lsam anovi "plaxoy baba" deyayotgani ammamga tashlanib qolsa kosov bilan boshiga tushiraman deb, mo'ljallab turgan edim. Kosovni ikkalamiz talashib qoldik. U o'ziga tortdi, men o'zimga. Oxiri u zo'r chiqdi. Kosov bilan uradi endi deb, qo'llarim bilan boshimni pana qilgancha o'tirib olibman. U bo'lsa men bilan ishiyam bo'lmadi, o'choqning oldiga borib, kulni tita boshladi.

— Vot, vot, — deb baqirib yubordi u birdan. Shoshib kul ichidan bir nimani qo'liga oldi-yu qo'li kuyib, uni tashlab yubordi. Yerdan archilib ketgan gilza yotardi. Sherigiyam shoshib borib gilzaning ustiga cho'nqaydi. Unisi o'rischalab, o'qni o'choqning ichidan otganini, zo'r berib tushuntirardi. Qochib qolmasin degandek mengayam qarab-qarab qo'yardi. Sirim fosh bo'b qoldi. Siroj tog'ayam bariga tushinib yetdilar. Teppamga kelib, ko'zlarining paxtasi chiqib, to'mtoq ko'rsatkich barmog'i bilan peshonamga nuqiy ketdilar.

— Sen yot unsur, yomon bolaykansas. Men-ku mayli, o'zimizni odamman, o'qing manovilarning bittasiga tekkanda bormi, a? Naq onangni uchqo'rg'onidan ko'rarding. Yo'-o'q, bitta senmas, qaniydi shu bilan qutilib bo'lsa, butun qishloq onasini uch qo'rg'onidan ko'rardi. Ha, qishloq yer bilan bitta bo'lardi... tekislashvorardi, bachchag'ar, odam-podami bilan tekislashvorardi...

Ammam angrayganicha menga o'qrayib qarab qoldilar. Ahir ular G'anijon amakim bilan shu bitta o'qni qidirib tinkalari quridi-ku. Jiyanlarimni qorinlaridan bo'lak hamma joylarini

OMADLI O'QUVCHINING QOIDASI

Bolajonlar, sizlarga ma'lumki, har bir insonning hayotda amal qiladigan shiori, o'z qoidasi bo'ladi. Sizlarning-chi, shioringiz bormi? Ular qanday tartibda? Shioringiz sizga yordam beradimi? Agarda bunday qoidalardan yiroq bo'lsangiz, e'tiboringizga quyidagi amallarni havola etmoqchimiz. Har tong maktabga o'tlanish oldidan bu qoidalarga bir marotaba ko'z tashlasangiz, o'sha kuningiz omadli o'tadi.

1. Yolg'on so'zlamang.
2. G'irromlik qilmang.
3. Bergan va'dangizni buzmag.
4. Rejalashtirgan ishlaringizni vaqtida bajaring.
5. Chidamli bo'ling.
6. G'arazli bo'lmang.
7. Achinmag va afsuslanmag.
8. Birovga yoki buyumga zararingiz tegmasin.
9. Qo'rqmag.
10. Xavotirlanmag.
11. Ikkilanmag.
12. Ishonchingiz so'nmasin.
13. O'zingizni
14. Ko'chirmachi bo'lmang.
15. Birovning nafsoniyatiga tegmag.
16. G'iybatdan yiroq bo'ling.
17. Hasratingizni dasturxon qilmang.
18. Yaxshilikka intiling.
19. Halol bo'ling.
20. Ozoda bo'ling.

Nargiza ABDULLAYEVA, tarjimasi.

jiyanlarimga "hayr, yaxshi qolinglar" degandek qarab qo'ydim. Ammam emizikli Rixsi jiyanimni bag'riga

titkilab chiqishdi. Men bo'lsam, ko'rib-bilib turib, bez bo'lib turaverdim. Ammamlar judayam soddadil, ishonuvchan xotin edilar. Doxtirxonada farrosh bo'lib ishlar, oylik olsalar menga sanatardilar. Bir so'mlik bilan uch so'mlikni ajrata olmasdilar. Ammamning menga g'alati qilib qarashi "hali kelib-kelib senga ishonib yurganmidim, otam" degandek yuragimni ezib yubordi. Kishi bilmas ich-etimni yer edim. Qaniydi, shu turishimda yerga kirib keta qolsam...

— Ayda malay, konturda viyasnit itabiz, dedi meni fosh qilgan askar yelkamga turtib. U tatar abziylardan ekan. Ular meni aristondek oldilariga solib olishdi. Ammamga,

bosgancha, indamay ko'zyosh to'kardilar. Ergash bilan Yo'ldosh bo'lsa xuddi men o'ynagani ketib, ular quruq qolayotgandek g'ingshib orqamdan ergashishdi.

— Voy o'lay, dedilar nihoyat ammamlar o'zlariga kelib, -buni o'ta-onasiga men nima deyman, Siroj tog'a?..

— Nima derding, tavba? Shuyam gap bo'pti-yu, yot unsur deysan, Tursunxon jiyanim ko'rib turibsan-ku qib qo'ygan ishini. Astag'firullo, bunaqa ishlar paqat yot unsurlardan chiqadi! Shunday deb Siroj tog'a ukalarimni orqaga

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Ona tilim-jonu dilim

GRAMMATIKA OROUGA SAYOHAT

Bundan bir necha yillar avval ona tili qit'asida "Grammatika" janoblari dunyoga kelgan ekan. Ko'p vaqt o'tmay, u egizakli bo'libdi. Shu kundan boshlab ularning kattasini "Morfologiya", kichigini esa "Sintaksis" deb atay boshlabdilar. Ular egizak bo'lsalarda, bir-birlariga umuman o'xshamas edilar. "Morfologiya" u ishni qilsa, "Sintaksis" bu ishni boplab turardi. Xullas, egizaklar nima ish qilmasinlar, grammatikaning ko'ziga, ko'ngliga xush yoqardi. "Sizlarsiz menga hayot yo'q, bolajonlarim", der edi.

Qoidaga asoslangan hikoyamning qahramoni "Morfologiya" bo'lgani ma'qul deb, topib, sintaksis haqida kelgusi safar hikoya qilishga qaror qildim.

Morfologiya grammatika bag'rida o'sib-ulg'ayib, u ham tez orada ona grammatikaning qasrini farzandga to'ldirdi. Bir emas o'n ikki pahlavon ichida "Ot", "Sifat", "Son", "Fe'l" eng epchili bo'lib, har yerda hozir-u nozir edilar. Mustaqil ravishda fikr yuritishga odatlanganliklari tufayli hokim ona tilining e'tiborini o'zlariga tortgan edilar. O'sha e'tibor, o'sha mashhurlikni hatto boshlang'ich sinf o'quvchilari ham yaxshi bilishadi. Ko'pchilik ularning kim ekanligi, qayerdan kelgani va mansabi, bajaradigan vazifasi haqida anchamuncha ma'lumotlarga ega bo'lsalarda, quyidagi ma'lumotlarni sizga yetkazishni o'zimni haqqoniy burchim deb bildim. O'n ikki aka-uka orasida alohida o'rni bor bo'lgan "Olmosh" haqiqiy pahlavon edi. Bir yo'la u ot, sifat, son o'rmini bosib, ular bajaradigan vazifalarni to'laligicha ado etardi. Hattoki yetti nafar o'quvchiga ustozlik ham qilar edi. "Shuncha ishlarni bir o'zi qanday bajarar ekan-a", deb sifatbek savol bergani-bergan, lekin hech ham savolga javob topa olmay bechoraning joni halak. Fe'l esa ukasiga "nima bo'libdi, bu hammaning qo'lidan keladigan ish, sen ham harakatda bo'l, o'zib ketasan. Maqtancholik demasang, mana o'zim ham fe'l bo'la turib gap idorasida kesim bo'lib ham ishlayman, hech yerim yeyilgani yo'q!", dedi undovning ko'magida.

Sifat bu so'zlarni ko'ngliga og'ir olib, qo'shimcha mehnat bilan shug'ullana boshlabdi. Aka-ukalarning bari mehnatkash, gap idorasida doim faol ishlab, Morfologiyaning shuhratini butun ona tili qit'asiga yoya boshlabdilar. Shu-shu ularni har yilning 21-oktabr kunini yaxshi fikrlar bilan eslab, she'rlar aytib, bayram qiladigan bo'lishibdi. Ona tili qit'asida hamon bahs-munozaraga to'la hayot qaynamoqda. O'quvchilar esa qaysi oliygoh talabasi bo'lishni xohlashlaridan qat'iy nazar, ona tili haqida ma'lumotga ega bo'lishlari shart ekanligini tushunmoqdalar.

Shu erda men o'z hikoyamni yakunlasam.
Munojat SADRIDDINOVA.

saqlanadigan omborxonaga qamashdi. Partkom kalitni choyxonachi Isoqjon tog'aga berarkan dedi:

— Bu yot unsurga rahm qilib yurmang tag'in, xo'pmi?

— A? Nima ishkal chiqardi bu yetimcha, firqa ukam?

— Naq otib qo'yaayozdi bizzii...

— Yoppiray, Tursunxonni uyida o'qotar borakanmi, yo qudratingdan! Raxmatlik Abdumajid topshirmay ketgan ekan-da.

— Otaman desa miltiqsizam otsa bo'larakan. Tavba shuncha yil qon kechib... Bir Xudo saqladi-da meni. Ajal o'lgur bir enlik teppamdan o'tib ketdi-ya...

— Yo qudratingdan, deya eshik orqasida g'udirandi Isoqjon tog'a, — kelib-kelib o'zimizni pirqani otasanmi yetimcha-yetti kulcha. Anovilarni otmaysanmi, anovilarni! Padaringga la'natlar kevolishib, naq mening choyimga tikilib qolishdi. Choyni biram kakra qilib ichishadiki, ko'knorimi deysan... Boraqolay... ha qo'rqma jiyan, osh-ovqating bo'ynimga. Kechqurun bo'lsin qo'yvoraman uyingga borib maza qilib uxlabam kelovrasan. Xohlasang qochiribam yubaraman... Menga nima...

Men Ko'ktoyni G'anijon amakim otgan ekanlar-da degan gumonda qoldim. Ular shu ketganlaricha Qozog'istondagi ammamnikiga ketib qoldilar. Ancha yillar o'sha tomonlarda qolib ketdilar. Hayolimda Xudo amakimlarni Ko'ktoy uchun jazolagandek edi. Qishlog'imizda Ko'ktoyda it boshqa paydo bo'lmadi. Davralarda Ko'ktoyni qiliqlari, vafodorliklarini ancha yillar eslab yurishdi.
(Davomi bor.)

- Men katta ko'chadaman, atrofda hech kim yo'q, hamma uxlayapti... Bu gaplarni deyarli har kuni eshitamiz. Chunki ko'chamizdagi Komil aka har kuni shu gaplarni aytib, ko'chama-ko'cha kezib yuradilar. Kichkinaligimda boshqa bolalarga qo'shilib bu kishining ustidan men ham kulardim. Qarindoshlari orasida qadr topmagan, "jinni"ligi uchun ko'chaga haydalgan Komil aka haqidagi haqiqatni bilganimdan so'ng, ularni men ham kattalar kabi hurmat qiladigan bo'ldim. Voqea esa mana bunday bo'lgan ekan: Komil aka o'sha paytlarda tergovchi bo'lib ishlagan, juda halol, o'zgalar haqqini yemaydigan kishi bo'lgan ekanlar. Mahallada, ko'cha-ko'yda ularni hamma hurmat qilar, hatto soyasiga ko'rpacha tashlaydigan "jo'ralari" ham serob ekan. Bir kuni ularning qo'lga avtohalokat tufayli sudga oshgan yoshgina yigitning ishi kelib tushibdi. Komil aka ishga kirishib ketibdilar. So'roq davomida bu yigit mujmal javob berar, voqealarni gohida qorishtirib tashlarkan. Komil aka bu yigitning begunoh ekanligini tushunib, asl aybdor kimligini undan so'rabdi. Ammo u buni

aytishdan bosh tortibdi. Shunda Komil aka mashinaning egasi kimligini, qayerda yashashini surishtirib, voqea aslida qanday bo'lgani va avtohalokat kim tomondan sodir etilganligini bilib olibdilar. Mashinasida odam urib yuborgan va uning o'limiga s a b a b c h i



bo'lgan odam aslida boyvachchani o'g'li bo'lib, u do'stini sirtmoqqa tutib bergan ekan. Komil aka u yigitni uzoq qarindoshlarinikidan toptirib kelibdilar. O'g'lini qo'lga tushganini eshitgan boyvachcha Komil akaga pul, mashina, uy va'da qilibdi. Ammo ular bunga ko'nabidilar. Shunda u hiyla ishlatib, Komil akaning o'rtog'ini

qo'lga olibdi va uning uyida ziyofat uyushtirishni buyuribdi. Hech qanday shubha-gumonga bormagan Komil aka kech tushgach, oilasi bilan o'rtog'ining o'g'lini "tug'ilgan kuni"ga boribdilar. U yerda shirakayf oshnalari Komil akaga "do'sti" uchun ichishni taklif qilishibdi. Uylariga qaytishayotganida birdaniga mashinaning tormozi ishlamay qolibdi. Komil aka harchand urinmasin, uni to'xtata ololmabidilar va chuqurga tushib ketibdilar. Komil aka ziyofatda o'tirganlarida, "boyning odamlari" mashinaning tormozini buzib qo'yishgan, bu bilan "dushmandan" qutulmoqchi bo'lishgandi. Xullas, Komil aka arang o'ziga keladilar. O'g'llari va xotinlarining qonga belanib yotishganini ko'rib, ularning o'limida o'zini ayblaydilar. Natijada aqldan ozadilar. Qarindoshlari ulardan yuz o'girishadi. Tug'ishgan ukalari uylariga ega chiqadi. Komil aka esa ko'chaga haydaladilar. Bir vaqtlar "aka" deb ortidan yugurgan oshnalari endi ko'chada ko'rishsa, jinni, deb ters o'girilib ketishadi. Lekin endi Komil aka bunga bepisand, ular hali ham o'sha damlardagi "jo'shqin hayotida" baxtiyor yashayaptilar.

Javlon XOLNAZAROV,
Surxondaryo viloyati,
Termiz shahri, 10-sinf
o'quvchisi.



"BIMBA"NING JASORATI

Bu voqea shu yilning yoz oylarida ro'y bergandi. Akam ikkimiz pichan o'rimiga toqqa borgandik. Tog'ning salqin muzdekkina suvi odamning bahri-dilini ochib yuborardi. Kechalari salqin bo'lar, akam ikkimiz katta ko'rpani ichiga kirib, mazza qilib uxlardik. Bizning Bimba laqabli itimiz bo'lib, bizga "hamroh" tabiatan yuvvosh bo'lib, begona odamlarga ham gohida indamasdi.



Lekin bir kuni... O'sha kuni pichanni oxirini g'aramlab, rosa charchadik, Akam menga: - Sen pichanlarni bir joyga yig'ib tur. Men qishloqdan mashina olib kelaman. Kech bo'lsa ham ortib ketamiz, - dedilar. Men akamning aytganlarini qilib bo'lgunimcha, kun og'a boshladi. Shunda Bimba bilan o'ynab yotib, daraxt tagida uxlab qolibman. Bir payt Bimbaning irillagan tovushidan uyg'onib ketdim. Qarshimda chipor ilon turar, taxminimcha, men yotgan joyda uning ini bor edi. Ilonni ko'rgach, qo'rqib ketdim. Agar qochsam, u menga tashlanishi aniq edi. Uzun tillarini o'ynatib, tobora menga yaqinlashayotgan ilonni ko'rib, nafasim og'zimga tiqilib qolgan, terlab ketgan edim. Shu payt Bimba ilonga tashlanib qoldi. Ilon ham uning oyoqlari aralash bo'yniga o'ralib olgan edi. Bimba xirrilab qolgan, ilon esa dumini bilanglatib turardi. Shu payt uning dumi qimirlamay qoldi. Bimbaning o'tkir tishlari ilonni o'ldirgan, men xavfdan qutulgan edim. Akam mashina bilan kelganlarida, men chaylada Bimbani quchoqlab yig'lab o'tirardim. Ular nima bo'lganini so'radilar. Men uyga borgach, hamma gapni oilamizdagilarga gapirib berdim. Doimo yonimizda indamaygina yuradigan Bimbaning jasoratiga barchamiz qoyil qoldik.

Sa'dulla USMONOV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani.

Bolalik - orzular chashmasi. Har birimiz endigina g'uncha bo'lib ochilgan chog'imizda qanchadan-qancha orzularga erishishni havas qilganmiz. Feruza Xudoymurodova ham ana shunday ezgulik sarchashmasidan, mustaqillik nashidasidan bahra olayotgan iste'dod sohibalaridan biri. U 1990 yil Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi Ulug'bek jamoa xo'jaligida tug'ilgan. Hozir Mirzo Bedil nomli 30-maktabda a'lo baholarga o'qiyapti. U 2003 yili «Kashtachilik san'ati» bo'yicha viloyat ko'rik-tanlovida qatnashib, faxrli 1-o'rinni olgan bo'lsa, 2004 yil «Ekologiya va jamiyat» mavzusida yozgan referati uchun Respublika birinchiligini qo'lga kiritdi. U o'z referatida ona tabiatimizning go'zalligi, zilol suvlari, alp tog'larining go'zalligi, bitmas-tuganmas boyliklari haqida faxrlanib yozadi. Uni avaylab-asrash lozimligini ta'kidlaydi. Sofligi, musaffoligi haqida qayg'uradi. Chindan ham sersaxovat tabiatni muhofaza

FERUZA



qilish umumdavlat ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Ayni kunga kelib yer yuzidagi o'rmonlar maydoni uchdan ikki qismgacha kamaygan. Hayvonot va qushlarning 150dan ziyod turlari yo'qolib, 600dan ortiq turi yo'qolish arafasida turibdi. Respublikamiz tog' o'rmonlarining asosiy qismini

archazorlar tashkil qiladi. Bizning archalarimiz yer yuzining boshqa biror joyida uchramaydi. Ular yog'och me'morchiligida, qurilishda, undan olinadigan efir moyi esa xalq tabobatida keng ishlatiladi. Bir dona archa daraxti sutka davomida 96 kubometr shifobaxsh ichuvchi modda chiqaradi. Bu modda inson va hayvonlar organizmidagi kasallik

qo'zg'ovchi viruslarni halok qiladi. Yovvoyi hayvonlar kasallanganda o'zini yaxshi his qilmaguncha quyuq archazorlardan chiqmay yotishi kuzatilgan. Bundan tashqari archazorlar qor erishini sekinlashtiradi. Daryolar iqlimini tartibga soladi. Unumdor tuproqlarni yuvib ketishdan saqlaydi. Achinarli joyi shundaki so'nggi yillarda tog' sayliga chiquvchilar o'simliklarni urug'i pishmasdan uzib olish, lolalarni kavlab olish, dorivor o'simliklarni ayovsiz yulib olishlari, yosh archa nihollarini kesib olishlari achinarlidir - deydi Feruza.

- Feruzaxon mana shunday ko'ngilsiz voqealarni oldini olishda maktabingizda qanday ishlar olib borilyapti?

- Biz yashab turgan Qashqadaryo viloyatining go'zal vohasi, Kitob tumani ham xuddi shunday go'shalardan biridir. Biz yosh tabiatshunoslar olimi Mahfirat opa To'rayeva boshchiligida tabiatni asrash borasida ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirdik. Tumandagi barcha maktablarda «Yashil nazoratchilar» guruhlarini tuzganmiz.

Tumanda iqtidorli o'quvchilar ko'rik-tanlovlardan

tashqari «Tabiatni sev va qo'riqla», «Qushlar bizning do'stimiz», «O'rmon haftaligi» mavzularida tadbirlar o'tkazamiz.

Onajonim - tabiat

O'lkamiz tabiatini qo'riqlash maqsadida hali ko'p ish qilishga to'g'ri keladi. Birdan bir maqsadim - ularni o'rganish va asrashdir.

2005 yilda Feruza Xudoymurodovaning «Oqardaryo» kitobi chop etildi. Unda Feruzaning sara she'rlari e'lon qilindi.

Feruza yoshligidan ona tabiatga, milliy urf-o'datlari mizga, madaniyatimizga mehr-muhabbat, havas va ishtiyoq bilan o'sdi, ulg'aydi. Shu bois u yozgan she'rlarda, maqolalarida, ilmiy va badiiy izlanishlarida ekologik fan yangiliklari, hayot quvonchi, tabarruk yurt, Ona Vatan, mehr-muhabbat g'oyalarini tarannum etish orzulari bilan yashamoqda.

Uning yangi she'rlari bilan gazetamizning kelgusi sonlarida tanishasiz. Tabiat oshig'i, jonkuyar va izlanuvchan tengdoshingizning orzulari ro'yobga chiqishiga tilakdoshmiz.

Tohir MULLABOYEV.

O'QISHGAMEN, YOZISHGAMEN, SANASHGAMEN

«Har kuni muallimlarning, jim o'tirgin sinfda bir sen emas boshqalar ham bor, degan tanbehlariga qaramasdan qo'limni ko'tarib men aytay, men aytay, degan so'zlarimni necha bir o'n marotaba takrorlardim. Ular bezor bo'lganlaridan tinimsiz doskaga chiqarishar va a'lo baholarim soni ortgandan ortaverardi. Sinfboshi bo'lganim uchun hammadan birinchi bo'lish fikri bir zum bo'lsa-da, xayolimni tark etmas, bolalarcha gerdayib yurishga, lider bo'lishga intilardim», - deydi O'zbekiston teleradiokompaniyasi «Assalom, O'zbekiston!» studiyasining katta muharriri, Xalq ta'limi a'lochisi, Shuhrat medali sohibasi Nasiba opa Maqsudova.

YO'KSI HAR DOM MEN...

RAVON NUTQ MAZMUNLI SUHBAT ILDIZI

Otam Murod Maqsudov qo'li yengil shifokor bo'lgani bois, uyimizga ijod ahli va katta san'atkorlar tez-tez tashrif buyurishardi. Oybek domla, Quddus Muhammadiy, Komiljon Otaniyozov, Sattor Yarashev, Karim Zokirov, Shohista Zokirova, Mukarrama Turg'unboyevaning tong otguncha davom etadigan qiziqarli suhbatlarini jon qulog'im bilan tinglardim. Ularning ravon nutqlaridan go'yo sehlaniy qolardim. Qalbmimga hayajon to'la havasning cheki yo'q edi. Dadil bo'lganim uchunmi, dadam hamisha bu aziz mehmonlar oldida meni she'r o'qishga undar, maktabda yodlagan she'rlarimni jaranglatib o'qib berishim davradagilarning olqishiga sazovor bo'lardi...

Adabiyot fani o'qituvchimiz Inobat opa Rasulova hamisha, sen Rixsi Ibrohimovadek aktrisa bo'lasan, senda uning timsolini ko'raman, deya ta'kidlardilar. Sababi, Rixsi opa ham bizning Toshkent shahar, hozirgi Yunusobod (ilgarigi Kirov) tumanidagi 20-maktabimizda tahsil olgan bo'lib, barcha bundan faxrlanardi. Ustozimning niyatlari ijobat bo'lib, 12 yoshimda oynai jahon orqali namoyish etilgan «Ona mehri» spektaklida rol ijro etdim. Rejissyor Akmal aka Haydarovga iqtidorim ma'kul bo'ldi chog'i, yana ko'plab spektakllarga taklif qila boshladi. Keyinchalik zangori ekran orqali namoyish etilayotgan «G'unchaoy» ko'rsatuvida boshlovchilik qildim. Efir jonli bo'lgani bois talab qattiq edi. Ko'pincha «qaqildoq»ligim ish berib, yonimdagi o'rtoqlarimning ham she'rini bir pasda yodlab olardim. Ular salgina tutilib qolishsa, hech ikkilanmasdan ularning o'rniga ham davom ettirib ketaverardim. Ustozlarim Akmal aka Haydarov va Mahkam aka Muhammedovlarning xuddi dadam singari boshimni silashlaridan suxandonlik



Nasiba Maqsudova (o'ngdan) shogirdi, katta muharrir Hasanboy Sattorov va rejissyor Qobiljon Rahmonovlar bilan.

kasbining sir-asrorini o'rgana boshladim. Ularning boy tajribasi kelgusi hayotimda ham katta bir maktab vazifasini o'tadi, desam aslo mubolag'a emas.

JURNALISTNING KO'ZI O'TKIR BO'LADI

1966 - yil hayotimda hech unutilmas, baxtli yil bo'ldi. Sababi, maktabni tugatib O'zMU (ilgarigi ToshDU)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdim hamda qadrdon dargohim oynai jahonda suxandonlik vazifasiga ishga qabul qilindim.

Televideniye da «Boychechak», «Qiziqarli uchrashuv» ko'rsatuvlarida boshlovchilik qilardim. Kishi kasbining fidoiysi bo'lsa, omadning o'zi uni izlab kelaverar ekan. «Kuyla o'n sakkiz yoshligim», «Istiqlol egalari», «Qizlar davrasi» kabi ko'rsatuvlarni, turli bayram tadbirlarini mustaqil ravishda olib bora boshladim. So'ngra, Axborot ko'rsatuvlarida suxandonlik qildim. 1990 - yildan boshlab «Assalom, O'zbekiston!» ko'rsatuvini olib borayapman. Qalbingiz toza bo'lib yo'ldan adashmasangiz, yo'lni o'zi sizga nur berib turar ekan. 5 daqiqalik lavha montaji uchun qariyb 2 soatdan ziyod vaqt ketadi. Ikki qo'shig' - u to'rtta savol bilan bo'ladigan ko'rsatuvlar zerikarli. Jurnalistikaning o'ziga xos sir-u asrorlari bor. Ba'zi bir jurnalistlar qalami o'tkir, ammo so'zga

no'noq yoki fikri tinig' - u shu fikrni bayon qilolmaydi. Bu soha kishilari o'tkir zehni, tinmay izlanib, ko'p o'qiydigan, dadillikka tayanib, o'z so'ziga ega bo'lishlari lozim. Ana shundagina ular muvaffaqiyat qozona oladilar. Samimiy ko'rinish, teran fikr darhol o'zgalar e'tiborini tortadi.

O'zTV ijodkorlari

davlatlarda ham barakali mehnat qilishmoqda. Kattaga kattadek hurmatda, kichikka kichikdek izzatda bo'lishini ko'rgan har bir kishi unga havas bilan qaraydi.

Hasanboy

SATTOROV, katta muharrir:

- Ustozim Nasiba Maqsudova bilan o'n besh yildan buyon birga teledasturlar tayyorlaymiz. Ular talabchanligi, izlanuvchanligi, to'g'ri so'zligi bilan barchamizni o'z ortidan ergashтира oladilar. Dastlabki ish boshlagan kezlrimda sal narsaga jizzakiligim tutib bahslashib ketardim. Ustozim sekin yonlariga chaqirib, shoshma-shosharlik bilan bajarilgan ishning natijasi ko'ngildagidek bo'lmaydi, deya nasihat qilardilar. O'gitlariga quloq tutib, hayotda aslo kam bo'lmadim.

Vohidjon G'ANIYEV,
sport sharhlovchisi:

- Dastlabki ishga kelgan kezlrimda, Nasiba Maqsudova bilan ishlayapman, ularni har kuni ko'rib turaman, deya tanishlarimga yolg'on gapirib obro' orttirmoqchi bo'lganman. Hozir buni eslasam, uyalib ketaman. Keyinchalik bu gaplarimni Nasiba opamni o'zlariga ham aytganimda, miyig'ida kulib qo'ygandilar. Kim astoydil havas qilsa albatta orzusiga yetarkan. Bugun Nasiba Maqsudovaning shogirdlaridan ekanligimdan faxrlanaman.

BAXTIM — OILAM TINCHLIGIDA

Ayol kishining baxti oilasining tinchligidadir. Oilamni ham, ishimni ham birdek ko'rib, aslo xato qilmadim. 2 nafar qizimiz, 1 nafar o'g'limiz bor. Dilnozaxon kelinimiz, ikki nafar kuyovimiz xuddi farzandlarimiz singari aziz. Turmush o'rtog'im Anoriddin Aminov Toshkent Davlat Texnika Universitetida kafedra mudiri, ilmiy markaz yetakchisi, olim. Bir-biridan shirin 6 nafar nabiralarim qurshovida otin buviga aylanaman. Farzandlarimni bag'rimga bosar ekanman, diyorimizdagi barcha bolajonlarga tilagim shunday: -

Assalom, O'zbekiston!
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13857
Buyurtma N: J 1723

Jamila ERDONOVA yozib oldi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13857
Buyurtma N: J 1723

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Jamila
ERDONOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45